

O‘ZBEK AYOLI - KECHA VA BUGUN

Pardayeva Dilshoda Chori qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

E-pochta: dilshodaachoriyevna0511@gmail.com

Tel: +998 91 514 31 04

Annotatsiya: *Ayol – jamiyat ko‘prigining ustuni, hayot chashmasi. Ayolning borligi – hayotning o‘zi, uning mehri esa kelajak sari yo‘l chirog‘idir. U nafaqat oila bekasi, balki jamiyat taraqqiyotining muhim ishtirokchisi, ilm-fan, madaniyat va siyosatning ajralmas qismi. O‘zbek ayoli tarix davomida o‘z sabr-toqati, fidoyiligi va mehribonligi bilan e’tirof etilgan. Tariximizda Bibixonim, Nodira, Uvaysiy kabi mashhur ayollar ilm-fan va san’at rivojiga katta hissa qo‘shgan. Biroq, o‘tmishda ayollar asosan oila va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa, bugungi kunda ular siyosat, biznes va ta’lim sohalarida ham faol ishtirok etmoqda. Bu o‘zgarish qanday sodir bo‘ldi va jamiyat rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatdi? Ushbu maqolada o‘zbek ayollarining tarixiy va zamonaviy o‘rnini taqqoslab, ularning jamiyatdagi mavqeining qanday rivojlanib borayotganini ko‘rib chiqamiz.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbek ayoli, Jamiyatdagi o‘rni, Tarix va zamonaviylik, Ayollar huquqlari, Gender tengligi, Ayollar va siyosat, O‘zbekiston tarixi, Ayollar va ta’lim, Ayollar va biznes, Davlat boshqaruvi, Ayollar etakchiligi, Madaniyat va adabiyot, Ayollar faolligi, O‘zbek ayollarining rivoji, An’analar va o‘zgarishlar.*

УЗБЕККА ЖЕНЩИНА – ВЧЕРА И СЕГОДНЯ

Аннотация: *Женщина – опора моста общества, источник жизни. Присутствие женщины – это сама жизнь, а ее любовь – свет дороги в будущее. Она не только домохозяйка, но и важный участник развития общества, неотъемлемая часть науки, культуры и политики. На протяжении всей истории узбекские женщины славились своим терпением, самоотверженностью и добротой. В нашей истории большой вклад в развитие науки и искусства внесли такие известные женщины, как Бибиханум, Надира, Увайсий. Однако если раньше женщины занимались в основном семей и ремеслами, то сегодня они активно участвуют в политике, бизнесе и образовании. Как произошло это изменение и как оно повлияло на развитие общества? В этой статье мы сравним историческое и современное положение узбекских женщин и посмотрим, как развивается их положение в обществе.*

Ключевые слова: *Узбечка женщина, Роль в обществе, История и современность, Права женщин, Гендерное равенство, Женщины и политика, История Узбекистана, Женщины и образование, Женщины и бизнес, Государственное управление, Женское лидерство, Культура и литература, Женский активизм, Развитие узбекских женщин, Традиции и перемены.*

UZBEK WOMAN - YESTERDAY AND TODAY

Annotation: *A woman is the pillar of society, the source of life. A woman's existence is life itself, and her love is a beacon to the future. She is not only a homemaker, but also an important participant in the development of society, an integral part of science, culture and politics. The Uzbek woman has been recognized throughout history for her patience, dedication and kindness. In our history, famous women such as Bibikhanim, Nodira, Uvaysiy have made a great contribution to the development of science and art. However, if in the past women were mainly engaged in family and crafts, today they are also actively involved in politics, business and education. How did this change occur and what impact did it have on the development of society? In this article, we will compare the historical and modern position of Uzbek women and consider how their position in society is developing.*

Key words: *Uzbek woman, Her place in society, History and modernity, Women's rights, Gender equality, Women and politics, History of Uzbekistan, Women and education, Women and business, Public administration, Women's leadership, Culture and literature, Women's activism, Development of Uzbek women, Traditions and chan GES.*

O‘zbek xalqining tarixi davomida ayollar turli davrlarda turlicha mavqega ega bo‘lishgan. Ularning asosiy faoliyati oilani boshqarish, farzand tarbiyasi va hunarmandchilik bilan bog‘liq bo‘lgan. Biroq, ayrim tarixiy shaxslar bu tasavvurni o‘zgartirgan ya’ni ba’zi davrlarda ular davlat boshqaruvi va madaniyatning rivojlanishida faol ishtirok etgan. O‘z zamonasining etuk ayllordan bir bu – Bibixonimdir. Bibixonim – nafaqat Amir Temurning rafiqasi, balki o‘z davrining ta’sirchan shaxslaridan biri bo‘lgan. Uning nomi bilan bog‘liq afsonalar ham shuni ko‘rsatadiki, Bibixonim o‘z zamonasining etuk aql-zakovat sohibasi va husn-latofat bobida ham benazir edi, shuningdek u faqat saroydagi ayol emas, balki davlat siyosati, madaniyat va ilm-fannning rivojlanishida ham muhim rol o‘ynagan. Uning o‘z jamg‘armasining hisobidan Samarqand shahrida Bibixonim madrasasini qurdirganligi yaqqol misol bo‘la oladi [1]. Xuddi shunday siyosat va ma’rifatparvar ayollardan biri bo‘lgan Nodira – faqatgina shoirlilik bilan cheklanib qolmagan, balki Qo‘qon xonligida madaniyat va san’atni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. U hukmdor bo‘lsa-da, jamiyat uni faqat “xonning ayoli” sifatida emas, balki mustaqil shaxs sifatida tan olgan. Buning misoli sifatida esa uning asl ismi Mohlaroyim bo‘lishiga qaramasdan “Nodira”, “Komila” hamda “Maknuna” kabi bir nechta tahalluslarda erkin ijod qilganini ko‘rishimiz mumkin. Yana bir o‘zbek adabyoti tarixida yangi sahifa ochgan ayollardan biri Jahon otin Uvaysiydir. U – taniqli shoir, tasavvuf ahli bo‘lib, o‘z davrida ayollarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi kerakligini targ‘ib qilgan. Bu borada ayollar faqatgina oilada emas, balki jamiyatning turli sohalarida ham faol bo‘lishi mumkinligini isbotlagan. Uning fikricha: “Ayollar aql-idrok va zakovat egasi bo‘lib, jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi”[2]. Uvaysiyning ko‘plab o‘zbek shoirlarining murraabbiysi bo‘lganligi, uning o‘sha davrdagi ayyollarni jamiyatda ijtimoiy rolini oshirish eng katta maqsadi bo‘lganligining isbotidir.

Tarixda ayollarning an’anaviy faoliyatiga yuzlansak, o‘zbek ayollari asosan oilaviy hayot bilan shug‘ullangan, farzand tarbiyasi va uy ishlari ularning asosiy vazifasi bo‘lgan. Hunarmandchilik, gilam to‘qish, kashtachilik, kulolchilik, qishloq xo‘jaligi va boshqa an’anaviy sohalarida faoliyat yuritgan. Ayrim ayollar madaniyat va adabiyot sohalarida mashhur bo‘lsa-da, ko‘pchilik uchun ta’lim olish imkoniyati cheklangan edi. Bu rol jamiyat tomonidan tabiiy qabul qilingan, lekin aslida bu ijtimoiy tuzumning natijasi edi. O‘zbek xalqining qadimiy tarixiga nazar tashlasak, ba’zi qadriyatlar ayollar erkinligini cheklashdan ko‘ra, ularga mas’uliyat yuklashga qaratilgan. Bunday tarixiy rellyikka asoslanib, “Ayollarning faqatgina uy ishlariga mas’ul bo‘lishi – jamiyat tomonidan sun’iy yaratilgan tushuncha”, “Ayollar mehnati qadrlangan, ammo ular etakchi sifatida tan olinmagan”, “Ilm-fan va madaniyatga ayollarning hissi ko‘pincha e’tibordan chetda qolgan” va “Ayollarning iqtisodiy faoliyati erkaklar tomonidan boshqarilgan” kabi fikrlar tug‘ulishi tabiiydir.

Zamonaviy hayotimizda esa, o‘zbek ayollarining mavqeyi anchayin yaxshilangan desak joizdir. Bugungi kunda o‘zbek ayollari jamiyatda turli xil jabhalarda muhim o‘rinlarni egallagan. Misol uchun: Siyosat sohasida faol – senatorlar, deputatlar, davlat boshqaruvi vakillari orasida ko‘plab ayollar bor ya’ni

O‘zbekistonda siyosatda ayollarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Ularning parlament, hukumat va siyosiy partiyalardagi ulushi sezilarli darajada oshgan. Bularning misoli tariqasida O‘zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida va Senatida ayollar soni oshib borishi, 2019-yilgi saylovlardan so‘ng parlamentning 30% dan ortig‘ini ayollar tashkil etishi va bu Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari ayollar ayrim vazirliklarda rahbarlik lavozimida faoliyat yuritayotganligiga o‘sha yildan buyon Tanzila Narbayeva O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi lavozimida faoliyat yuritib kelayotgani yorqin misol bo‘la oladi. Ayollarning siyosiy faolligini oshirish nafaqat ijtimoiy taraqqiyotga, balki mamlakatning demokratik rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi. O‘zbekistonda ayollarning biznes sohasidagi ham ijtimoiy roli tobora ortib bormoqda. Ayollar kichik va o‘rta biznesda faol ishtirok etmoqda, ayniqsa xizmat ko‘rsatish, tikuvchilik, qishloq xo‘jaligi va savdo sohalarida. So‘nggi yillarda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturlari va nodavlat tashkilotlari tomonidan turli tashabbuslar amalga oshirilmoqda va ularga davlat tomonidan grantlar va subsidiyalar ajratilmoqda. Davlat tomonidan ayollarga imtiyozli kreditlar, grantlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlari taqdim etilmoqda. Masalan, "Ayollar daftari" dasturi orqali tadbirkor ayollarga yordam berilmoqda. Bundan tashqari, xotin-qizlarning siyosiy va biznes salohiyatini rivojlantirish, ularning kasbiy mahorati va etakchilik qobiliyatini kengaytirish bo‘yicha davra suhbatlari o‘tkazilmoqda. Masalan, 2021-yil fevral oyida Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida o‘tkazilgan tadbirlarda ayollarning siyosiy sohalarida ishtirokini oshirish va tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi.[1]

O‘zbekistonda ayollar ilm-fan sohasida ham tobora faol ishtirok etib, turli yo‘nalishlarda muhim yutuqlarga erishmoqda. Ilm-fan taraqqiyotida ularning roli nafaqat

mamlakat ichida, balki xalqaro miqyosda ham sezilarli darajada ortib bormoqda. O‘zbekistonda fan doktori va professor darajasiga ega ayollar soni yildan-yilga ortmoqda. Ular biologiya, tibbiyot, muhandislik, pedagogika, texnologiya va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda etakchilik qilmoqda. Bundan tashqari, O‘zbek ayollari xalqaro konferensiyalar, grant dasturlari va ilmiy loyihalarda ishtirok etib, global ilmiy hamjamiyat bilan hamkorlik qilmoqda. [2]

Shuningdek o‘zbek ayollari boshqa ko‘plab texnologiya, sport, san’at kabi sohalarda ham judayam ildamlilik bilan faoliyat olib bormoqda.

Xo‘sh bunday natijalarga qanday erishildi va bularning samarasi va jamiyatga ta’siri qanday bo‘ldi deb o‘ylaysiz? Alabatta har bir davlatda turli xil ijtimoiy qatlam yoki turli xil soha vakillarining jamiyatdagi mavqieyi va o‘rni shu davlatda bo‘layotgan siyosiy qonunlar va ijtimoiy tizimlarga bog‘likligi tabiiy holdir. O‘zbekistonda ham mustaqillikdan keyin keyin ayollarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash va oshirish uchun qilinayotgan chora tadbirlar ularning buning kunda hatto dunyo miqyosida o‘z o‘rnini topa olishiga imkoniyat beryapti. Ayollarning mavqeining oshishiga ta’sir ko‘rsatgan omillardan biri bu:

1. Ta’lim imkoniyatlarining kengayishi – Hozirda ayollar oliy ta’lim olish imkoniyatiga ega va ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishmoqda. Ularning ta’lim sohasidagi o‘rni tobora kengaymoqda. 2021/2022 o‘quv yilida O‘zbekistonda oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarining 46 foizini qizlar tashkil etdi. [3]

Oliy ma’lumotli ayollar ulushi esa, 2022-yil holatiga ko‘ra, 25 va undan katta yoshdagi xotin-qizlarning 14,1 foizi oliy ma’lumotga ega edi. [4] Bu borada hukumat va turli xalqaro tashkilotlar ayollarning bilim olishi va kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir qator tashabbuslarni ilgari surmoqda. Masalan:

1.1 Magistratura kontrakt to‘lovlarini qoplash: 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab, davlat oliy ta’lim muassasalarida magistraturada o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlari davlat tomonidan qoplab berilmoqda. Bu maqsadda har yili kamida 200 milliard so‘m ajratilishi belgilangan;

1.2 Foizsiz ta’lim kreditlari: Oliy ta’lim muassasalari, texnikum va kollejlarda sirtqi va kechki ta’limda o‘qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlarini qoplash uchun 7 yil muddatga foizsiz kreditlar berish tizimi joriy etilgan. Bu dastur uchun har yili 1,8 trillion so‘m yo‘naltiriladi. 1.3 Xorijiy ta’lim grantlari: Har yili 50 nafar bakalavriat va 10 nafar magistratura bosqichida tahsil olishni istagan xotin-qizlarga xorijiy oliy ta’lim muassasalarida o‘qish uchun “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali qo‘shimcha grantlar ajratiladi [5].

Shu va shunga o‘xshash islohatlar hozirgacha davom etmoqda. Ayollarning ilm fanidagi ishtiroki va ilmiy faoliyatdagi pozitsiyasi ortib borayotgani ijobiy holatdir, chunki bu jamiyatning intellektual salohiyatini oshiradi. Ilmiy faoliyatda ularning o‘rni o‘sib borishiga misol tariqasida So‘nggi etti yilda 5 247 nafar ayol fan doktori (DSc) yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olishi yoki O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tizimida ishlayotgan 4 760 nafar xodimning 40 foizini, ya’ni 1 905 nafarini xotin-qizlar tashkil etishini ko‘rishimiz mumkin.

2. Gender tengligi targ‘iboti – Ayollar va erkaklar huquqlari tengligini targ‘ib qiluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. O‘zbekiston gender tengligini ta‘minlash bo‘yicha so‘nggi yillarda bir qator muhim islohotlarni amalga oshirdi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklarning huquq va imkoniyatlari tengligi aniq belgilandi [6]. Shuningdek, gender tengligini ta‘minlash maqsadida 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi va “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu ma‘lumotlar O‘zbekistonda ayollarning ilmiy faoliyatdagi ishtiroki ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, gender tengligini ta‘minlash va ayollarning ilmiy faoliyatdagi ulushini yanada oshirish uchun xizmat qiladi.

3. Hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlash – Xotin-qizlar uchun maxsus dasturlar, grantlar va loyihalar ishlab chiqilmoqda: "Ayollar daftari" tizimi: Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Ayollar daftari” tizimi joriy etilib, Davlat byudjetidan har yili 300 milliard so‘m mablag‘ ajratib borilmoqda[7].

Ehtiyojmand talaba qizlarning kontrakt to‘lovlari: Har yili 2 100 nafar ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, etim yoki ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan talaba xotin-qizlarning ta‘lim kontraktlari mahalliy byudjetdan to‘lab beriladi[8].

Umuman olganda, ayollarga ta‘lim va kasbiy rivojlanish uchun teng imkoniyatlar yaratish nafaqat ularning shaxsiy muvaffaqiyati, balki jamiyatning umumiy taraqqiyotiga ham xizmat qiladi.

Ayollarga davlat tomonidan qilanayotgan chora-tadbirlar albatta javobsiz qolmayapti . Bugungi kunda o‘zbek xotin – qizlarining dunyo tan olganlari yo‘q emasdir. Ular yuqorida ko‘rgan va ko‘rmagan turli xil sohalarda o‘zlarini dunyo miqyosida ko‘rsatishga erishyaptilar. Ayniqsa sport sohasida ular eng yuqori cho‘qqilarni zabt etyaptilar . Misol uchun: Diyora Keldiyorova – o‘zbek sportchisi, dzyudo bo‘yicha xalqaro miqyosda yuksak natijalarga erishgan. 2024-yil Parijda bo‘lib o‘tgan Yozgi Olimpiya o‘yinlarida 52 kg vazn toifasida oltin medalni qo‘lga kiritib, O‘zbekiston tarixida dzyudo bo‘yicha birinchi Olimpiya chempioni bo‘ldi. Bundan tashqari Oksana Chusovitina (sport gimnastikasi), Kumushxon Fayzullayeva (og‘ir atletika), Svetlana Radzivil (yengil atletika va balandlikka sakrash) kabi ayol sportchilarimiz xalqaro champion bo‘lishgan , hatto ulardan Ginnesning rekordlar kitobiga kirilganlari ham bor.

Sportdan tashqari o‘zbek ayollari sa‘nat va madaniyat sohasida ham dunyoga tanilmoqda. Ulardan biri esterada xonandasi Yulduz Usmonova - O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning eng mashhur xonandalaridan biri.Uning qo‘shiqlari xalqaro miqyosda tan olingan, Latviya, AQSh, Turkiya, Qozog‘iston va boshqa turli mamlakatlarda konsertlar bergan va 2000-yilda Turkiyada ushbu unvonga sazovor bo‘lgan “Sharq qo‘shiqlari qirolchasi” unvoni kabi xalqaro yutuqlarga erishgan.

O‘zbekistonlik ayol olimlar ilm-fan sohasida ham xalqaro miqyosda e‘tirof etilgan yutuqlarga erishmoqdalar. Ulardan biri Guli Shayxova – tibbiyot fanlari doktori, professor Guli Shayxova 2023-yilda Koreyada bo‘lib o‘tgan “Koreya xalqaro ixtirochi ayollar

ko‘rgazmasi”da oltin medalni qo‘lga kiritdi. Ushbu ko‘rgazmada 40 dan ortiq davlatlardan 400 nafardan ziyod olimlar ishtirok etgan bo‘lib, Guli Shayxova o‘zining innovatsion ishlanmalari bilan yuqori baholandi. Ayollarning jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishga yordam berayotgan tashabbuskor ayollar yo‘q emas. Masalan, Shohida Yusupova – O‘zbekistonlik yosh shoira, jurnalist va tarjimon bo‘lib, adabiyot va jurnalistika sohasida bir qator yutuqlarga erishgan.

2018-yilda adabiyot yo‘nalishi bo‘yicha Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori bo‘lgan va Hindistonning “Sahitya Shree” (2018-yil), Turkiyaning “Altin Aslan” (2019-yil), Ruminiyaning “Odissey” (2020-yil) va Misrning “Tagrid Fayyad” (2021-yil iyun) xalqaro mukofotlariga sazovor bo‘lgan. Bunday ayollarining o‘zbek jamiyatida mavjud bo‘lishi judayam quvonarli hol ekanligi tabiiy holdir.

Xo‘sh bunday faolliklar jamiyat rivojiga ta’siri qanday va qanaqa naijalarga olib keladi? Birinchidan, iqtisodiy rivojlanish – Ayollar tadbirkorligi va mehnat bozoridagi faolligi iqtisodiyotni mustahkamlaydi. Ikkinchidan, ilm-fan va texnologiya rivojiga hissa – Ko‘plab ayol olimlar va muhandislar yangi kashfiyotlar qilishmoqda. Uchinchidan, jtimoiy barqarorlik – Ayollar ishtiroki kuchaygan jamiyatlarda ta’lim sifati, sog‘liqni saqlash tizimi va ijtimoiy hayot yaxshilanadi. To‘rtinchidan, oilaviy muhitning ijobiy o‘zgarishi – Ta’limli va faol ayollar farzandlarini ham ilg‘or fikrlashga, rivojlanishga undaydi. Umuman olganda, ayollar rivojlansa, butun jamiyat rivojlanadi. Ularning ta’limi, ilmiy faoliyati, tadbirkorligi va siyosiy ishtiroki jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo‘lib, davlatning har tomonlama mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Zero, jamiyatning asosiy tayanchi, uning yuragi va kelajak avlod tarbiyachisi bo‘lgan ayollar taraqqiyot jarayonining ajralmas qismidir. Ayollarning ta’lim olish huquqiga ega bo‘lishi nafaqat ularning shaxsiy hayotini, balki butun davlatning taqdirini belgilaydi. Ta’limli ayol – bu faqatgina o‘z hayoti yoki oilasi uchun emas, balki jamiyatga foyda keltiradigan shaxsdir. Chunki u farzandlarini ongli, bilimli, zamonaviy tafakkur egasi sifatida voyaga etkazadi.

XULOSA

O‘zbek ayollarining jamiyatdagi mavqei tarix davomida katta o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Agar o‘tmishda ular asosan oila va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa, bugungi kunda siyosat, biznes va ta’lim sohalarida faol ishtirok etmoqda. Ushbu o‘zgarishlar nafaqat ayollar hayotini, balki jamiyatning umumiy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayollar nafaqat oila tayanchi, balki kelajak bunyodkorlaridir. Bundan tashqari o‘zbek ayoli go‘zallik go‘zallik va sadoqat timsoli ham hisoblanadi. Ayollarni gullarga o‘xshatilishi bejiz emas, bitta gulga har kuni suv va mehr berilib tursa, u ertangi kunda gullab yashnab va o‘z chiroyi bilan insonlarning kayfiyatini ko‘taradi va o‘z urug‘lari ila ertangi kunda o‘zidanda xo‘shbo‘y gullarni yaralishiga sabab bo‘lganligi kabi ayolga ham e’tibor berilsa va qo‘llab – quvvatlanib imkoniyatlar berilsa kelajakda jamiyatdagi o‘rnini albatta topadi. O‘zbek ayoli o‘z o‘rnini topishi uchun unga ruxsat berish emas, balki sharoit yaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Orzibekov R . O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI (XVII – XIX (I yarimi) asrlar). Toshkent -2006.
2. J. O. Uvaysiy “ Uvaysiy devoni” . Toshkent -1970 . Muharrirlar – N. Karimov , M. Jo‘rayev va S. Mutalov .
3. https://www.instat.uz/uz/27-qo-mita-yangiliklari/24789-oliy-ta-lim-tashkilotlarida-tahsil-olayotgan-talabalarning-necha-foizi-qizlar?utm_source
4. https://factchecknet.uz/2024/01/19/ayollar-va-talim-raqamlar-sozlaganda/?utm_source
5. https://www.yangiyershahar.uz/uz/ijtimoiy-siyosiy/yangi-ozbekistonning-talim-sohasida-ayollarga-berilayotgan-imkoniyatlar?utm_source
6. https://lex.uz/mact/-4494849?utm_source
7. https://lex.uz/acts/-5466673?utm_source
8. https://www.yangiyershahar.uz/uz/ijtimoiy-siyosiy/yangi-ozbekistonning-talim-sohasida-ayollarga-berilayotgan-imkoniyatlar?utm_source